

### III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. Elektr energiyasi uchun hisob-kitoblar tabaqlashtirilgan, bir stavkali yoki aholiga tenglashtirilgan tariflar asosida amalga oshiriladi.

3.2. Ulangan quvvati 750 kVA va undan ortiq bo'lgan "Iste'molchi" (byudjet tashkilotlari, suv ta'minoti tashkilotlari, fermer xo'jaliklari va suv iste'molchilarini uyushmalarining nasos stantsiyalari, shuningdek Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan nasos stantsiyalari bundan mustasno) elektr energiyasi uchun hisob-kitoblarni tabaqlashtirilgan tarif bo'yicha amalga oshiradi.

Iste'mol qilingan energiya uchun tabaqlashtirilgan tarif bo'yicha hisob-kitoblar:

yarim tig'iz davr – sutkaning yorug' vaqtida (soat 900 dan 1700 gacha) – belgilangan tarif bo'yicha,

tig'iz davr – eng katta yuklamali soatlarda (yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamali soatlari: ertalabki eng katta miqdor soat 600 dan 900 gacha, kechki eng katta miqdor soat 1700 dan 2200 gacha) belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar miqdorda o'suvchi koeffitsientni ko'llash orqali;

tungi davr – sutkaning qorong'i vaqtida (eng kam yuklamali soatlarda: 2200 dan 2400 gacha va 0000 dan 600 gacha) – belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar kamayuvchi koeffitsientni ko'llash orqali amalga oshiriladi.

Belgilangan tarif II-tarif guruhi bir stavkali iste'molchilarga qo'llaniladigan tarifga tug'ri keladi.

Tabaqlashtirilgan tarif qo'llanilmaydigan iste'molchiga nisbatan energiya uchun hisob-kitoblarda bir stavkali tarif qo'llaniladi.

Ulangan quvvati 750 kVA gacha bo'lgan, elektr energiyasini realizatsiya qilishda narxni shakllantirishning alohida tartibi belgilanadigan tashkilotlar ro'yxatiga kiritilgan mahsulot ishlab chiqaruvchi va ayrim xizmatlar ko'rsatuvchi iste'molchilar uchun to'lovlar Hukumat qarori bilan belgilanadigan tariflar bo'yicha amalga oshiradi.

Ulangan quvvatidan qat'iy nazar, kripto-aktiv va mayning sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi iste'molchilar (turli kriptovalyutalarda yangi birliklar va komissiya yig'imlari formatida mukofot olish imkonini beradigan taqsimlash platformasini ta'minlash va yangi bloklar yaratish bo'yicha faoliyat) foydalangan elektr energiyasi uchun to'lovlarini tegishli tarif guruhibiga asosan belgilangan tarifga nisbatan 3 barobar o'suvchi koeffitsientga muvofiq to'laydi.

3.3. Bir necha tarif guruhlariga mansub iste'molchi bilan hisob-kitoblar, har bir tarif guruhibiga alohida o'matilgan hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi.

"Iste'molchi" tomonidan aloxida xisobga olish priborlari o'matish rad qilingan taqdirda, elektr energiyasi uchun to'lovlar foydalaniyotgan eng yuqori tarif guruxi bo'yicha hisob kitob qilinadi.